

**Jismoniy shaxslarning bank kartalarini O'zbekiston  
Respublikasining milliy valyutasida chiqarish va ularga xizmat  
ko'rsatish bo'yicha  
Ommaviy shartnoma - oferta**

Ushbu hujjat «ASIA ALLIANCE BANK» ATBning (bundan buyon matnda “Bank” deb yuritiladi) rasmiy taklifi (ommaviy oferta) hisoblanadi va Bank mijozlariga - jismoniy shaxslarga (bundan buyon matnda “Mijoz” deb yuritiladi), ularga O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasida bank kartalarini chiqarish va ularga xizmat ko'rsatish bo'yicha xizmatlar ko'rsatishda, ularga xizmat ko'rsatishning standart shartlari va tartibini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining (O'zRFK) 369–moddasi 2-qismiga muvofiq, quyida bayon qilingan Ommaviy oferta bandlari qabul qilingan taqdirda, ushbu ofertani akseptlovchi Mijoz - jismoniy shaxs buyurtmachiga aylanadi (O'zRFKning 370-moddasi 4-qismiga muvofiq ofertani akseptlash, ofertada bayon qilingan shartlar bo'yicha shartnoma tuzishga tengdir), Bank va Mijoz esa birgalikda - ushbu shartnomaning Taraflari hisoblanadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, ushbu ommaviy ofertaning matnini diqqat bilan o'qib chiqing va Bank tariflari bilan tanishib chiqing. Agar Siz ofertaning biron-bir bandiga rozi bo'lmasangiz, Bank Sizga xizmatlardan foydalanishni rad etishni taklif qiladi.

## 1. SHARTNOMA PREDMETI

1.1. Ushbu Shartnomaning predmeti bo`lib, hisobvaraqlar ochish bo`yicha va Bank tomonidan chiqarilgan Kartadan foydalangan holda hisob-kitoblarni o`tkazish bo`yicha, O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasida bank kartasi(lari)ni (bundan buyon matnda “Karta” deb yuritiladi) chiqarish, ularga xizmat ko`rsatish bo`yicha bank xizmatlarini ko`rsatishda Mijoz va Bankning o'zaro hamkorligi hisoblanadi.

1.2. Shartnoma shartlari standart shaklda belgilangan va Mijoz tomonidan quyidagicha qabul qilinishi mumkin:

- Bankka MSKHni ochish va milliy valyutada bank kartasini chiqarish uchun Ariza bilan murojaat qilish (bundan buyon matnda “Ariza” deb yuritiladi) va zarur hujjatlarni taqdim etish orqali;

- MSKHni ochish va milliy valyutada bank kartasini chiqarish uchun elektron ariza berish va Ommaviy oferta shartlariga rozilik berish orqali, Mijoz tomonidan «Alliance» Mobil ilovasida “Ommaviy oferta shartlari bilan tanishib chidim va roziman” degan matn yonidagi katakchaga tasdiq belgisini (roziligini) qo'ygan paytda.

Mijoz tomonidan ushbu harakatlarning bajarilishi Mijozning ushbu Shartnomaga umuman olganda qo'shilishini (aktseptini) anglatadi.

## 2. TERMINOLOGIYA

2.1. **Ofertani akseptlash** - Mijoz tomonidan ushbu ofertaning 1.2-bandida ko'rsatilgan harakatlarni amalga oshirish orqali ofertani to'liq va so'zsiz qabul qilishi.

2.2. **Autentifikatsiya** - Mijoz tomonidan ma'lumot olish, shartnomalar tuzish, hujjatlarni yuborish, operatsiyalarni va Shartnoma shartlarida nazarda tutilgan tartibda boshqa harakatlarni amalga oshirish uchun Masofaviy xizmat ko'rsatish kanallari orqali Bankka aynan Mijoz murojaat qilganligini tasdiqlash tartib-taomili.

2.3. **Bankomat** - Karta Saqlovchisiga Karta bo'yicha naqd pul mablag'larini MSKHdagi mablag'lar qoldig'i doirasida berish va Karta taqdim etilganda ma'lumotnoma axborotlarini taqdim etish uchun foydalaniladigan avtomatlashtirilgan qurilma.

2.4. **Qaytarish** - Karta Saqlovchisi Karta yordamida sotib olingan va Korxonada tomonidan ma`qullangan tovarlar, ishlar va xizmatlardan voz kechganligi natijasida va Mijozning MSKHni kreditlash uchun belgilangan shaklda Korxonada tomonidan amalga oshiriladigan pul mablag'larining har qanday qaytarilishi. Qaytarish naqd pulda amalga oshirilishi mumkin emas.

2.5. **Karta Saqlovchisi** – Bank tomonidan uning nomiga chiqarilgan kartadan foydalanuvchi Mijoz yoki Mijozning farmoyishiga binoan Bank tomonidan chiqarilgan Qo'shimcha kartadan foydalanuvchi boshqa shaxs.

2.6. **Identifikatsiya** - Bank tomonidan Mijozni lozim darajada tekshirish maqsadida

mijoz haqidagi ma'lumotlarni u tomonidan taqdim etilgan hujjatlar (Mijoz, har qanday bank xizmatlarini olish uchun Bankka shaxsan murojaat qilganida), shuningdek ochiq manbalar va ma'lumotlar bazalarida mavjud bo'lgan qo'shimcha tasdiqlangan ma'lumotlar asosida aniqlash.

2.7. **Karta** - Bank tomonidan Mijozning nomiga chiqarilgan **asosiy** bank kartasi, Mijozning yoki Mijoz tomonidan arizasida ko'rsatilgan jismoniy shaxsning nomiga Karta hisobvarag'iga chiqarilgan **Qo'shimcha** bank kartasi. Karta Bankning mulki hisoblanib, Kartaning old tomonida ko'rsatilgan muddatga chiqariladi.

2.8. **Mijoz** - jismoniy shaxs - ofertani akseptlashni amalga oshirgan va shu tariqa tuzilgan oferta shartnomasi bo'yicha Bank xizmatlarining buyurtmachisi bo'lgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi, chet el fuqarosi yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxs.

2.9. **"Alliance" Mobil ilovasi** – bu mobil qurilmaning operatsion tizimiga o'rnatiladigan dasturiy mahsulot bo'lib, uning yordamida Mijoz “Mobil banking – Alliance” Tizimi bilan o'zaro aloqada bo'ladi.

2.10. **MSKH** - Karta yordamida o'zaro hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun Bank tomonidan Mijozga ochiladigan O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasidagi maxsus so'm karta hisobvarag'i.

2.11. **Oferta** - bir yoki bir nechta aniq shaxslarga yuborilgan taklif bo'lib, bu yetarli darajada aniq va taklif kiritgan shaxsning o'zini taklifni qabul qiladigan adresat bilan shartnoma tuzgan deb hisoblash niyatini ifodalaydi. Ushbu holatda, oferta bu - mazkur Ommaviy shartnoma-oferta hisoblanib, u Mijoz tomonidan ofertani akseptlash orqali Bank va Mijoz o'rtasida tuziladi (bundan buyon matnda "Shartnoma"deb yuritiladi).

2.12. **SHIR-kodlar** - Karta Saqlovchisi tomonidan Karta yordamida operatsiyalarni amalga oshirish huquqini tasdiqlash, shuningdek axborotlarga kirishni cheklash uchun mo'ljallangan maxsus kodlar. SHIR-kodlar maxfiy ma'lumotlar hisoblanib, Kartadagi pul mablag'larining saqlanishini ta'minlash maqsadida Karta Saqlovchisi tomonidan sir saqlanishi kerak.

2.13. **Korxon**a - O'zbekiston Respublikasi hududida tovarlar, ishlar va xizmatlar uchun Karta Saqlovchisi bilan o'zaro hisob-kitoblar o'tkazish vositasi sifatida Kartalarni qabul qiluvchi har qanday yuridik shaxs yoki yakka tartibdagi tadbirkor.

2.14. **Kartaning rekvizitlari** - kartaning raqami va amal qilish muddati.

2.15. **Terminal** - tovarlar, ishlar va xizmatlar uchun kartabo'yicha hisob-kitob qilish, bank kassalarida naqd pul mablag'larini olish, shuningdek Karta Saqlovchisi tomonidan taqdim etilganda, ma'lumotnoma axborotlarini taqdim etish uchun ishlatiladigan qurilma yoki dasturiy ta'minot.

### 3. UMUMIY QOIDALAR

3.1. Ushbu Shartnoma va Mijozning Kartani chiqarish uchun arisasi/buyurtmasi asosida Bank 3 (uch) ish kuni ichida Mijozga MSKH ochadi, Kartani chiqaradi va Mijozga/Karta Saqlovchisiga topshiradi/yetkazib beradi. Kartani olayotgan vaqtda, Mijoz / Saqlovchi shaxsni tasdiqlovchi hujjatning asl nusxasini ko'rsatishi va SHIR-kodni o'zgartirishi kerak.

3.2. Agar Karta ish haqi loyihasi doirasida Mijozga chiqarilgan bo'lsa, Bank Tashkilot bilan kelishilgan muddat ichida Mijozga MSKH ochadi, Kartani chiqaradi va uni Tashkilot vakiliga (ishonchli shaxs) topshiradi. Ishonchli shaxslar - Tashkilot tomonidan tayinlangan va vakolat berilgan (ishonchnoma asosida), kartalarni chiqarish va ularga xizmat ko'rsatish bo'yicha Bank bilan o'zaro aloqada bo'luvchi jismoniy shaxslar.

3.3. Bank Mijozdan Bankning amaldagi Tariflariga muvofiq Kartani chiqarish/qayta chiqarish uchun vositachilik haqini undiradi.

3.4. Bank Kartani Kartaning old tomonida ko'rsatilgan muddatga chiqaradi. Kartaning amal qilish muddati tugashidan 10 (o'n) kalendar kun oldin Mijoz Kartani qayta chiqarish uchun Bankka murojaat qilishi kerak.

3.5. Karta Saqlovchisi tomonidan Kartadan foydalangan holda operatsiyalarni amalga oshirish, ularni hisobga olish va o'zaro hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun Bank tomonidan ochilgan MSKH quyidagi rejimga ega:

1) MSKHni yuritish O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasida – so'mda amalga oshiriladi;

2) MSKH, u bo'yicha tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq hisob-kitob operatsiyalarini

o'tkazish uchun mo'ljallanmagan;

3) MSKHda mavjud bo'lgan pul mablag'larining haqiqiy qoldig'iga Bank Tariflarida belgilangan miqdorda foizlar hisoblanadi;

4) Karta Saqlovchisi mustaqil ravishda MSKH bo'yicha xarajatlar operatsiyalarini faqat Kartadan foydalangan holda va faqat Kartaning amal qilish muddati davomida amalga oshirishi mumkin;

5) Bank vositachilik haqini Tariflarga muvofiq va boshqa to'lovlarni ushbu Shartnomaga muvofiq aktseptsiz tartibda MSKHdan hisobdan chiqaradi.

3.6. Karta Saqlovchisi ushbu Shartnoma doirasida Bank tomonidan taqdim etiladigan quyidagi turdagi operatsiyalarni amalga oshirishi mumkin:

3.6.1. tovarlar, ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar uchun Korxonalar bilan naqd pulsiz hisob-kitoblar;

3.6.2. bankomatlar va bank kassalari orqali naqd pul olish;

3.6.3. Bank kassalari orqali MSKHga naqd pul mablag'larini kiritish;

3.6.4. amaldagi qonunchilikka muvofiq MSKHga boshqa hisobvaraqlardan naqd pulsiz shaklda pul mablag'larini kiritish;

3.6.5. bankomatlar, infokiosklar va boshqalar yordamida amalga oshirilgan tranzaktsiyalar bo'yicha ma'lumotnoma axborotlarini olish. Faqat Mijoz Bankdan ma'lumotnoma axborotlarini (hisobvaraqlarning ishlashi to'g'risida ma'lumotnoma olish va h.k) olish huquqiga ega;

3.6.6. Internet tarmog'ida to'lovlar va boshqalar.

3.7. Operatsiyalarni amalga oshirish uchun Bank Mijozdan Bankning amaldagi Tariflariga muvofiq vositachilik haqini undiradi. Mijoz Bankka Tariflarga muvofiq vositachilik haqini aktseptsiz tartibda MAKHdan hisobdan chiqarishni topshiradi.

3.8. Agar Bank Tariflarga va ushbu Shartnomaga o'zgartirishlar/qo'shimchalar kiritilsa, Bank bunday o'zgartirishlar/qo'shimchalar kiritilgan sanadan kamida 10 (o'n) kalendar kun oldin, ushbu Shartnomaga qo'shimcha kelishuv tuzmasdan, bu haqda Mijozga quyidagi usullardan biri yordamida xabardor qiladi:

- Tariflarga va Shartnomaga o'zgartirishlarni va/yoki qo'shimchalarni Bank ofislaridagi axborot stendlarida joylashtirish orqali;

- Tariflarga va Shartnomaga o'zgartirishlarni va/yoki qo'shimchalarni Bankning [www.aab.uz](http://www.aab.uz) manzili bo'yicha web-sahifasida joylashtirish orqali;

- Bankning xohishiga ko'ra, boshqa yo'l bilan.

3.9. Bank tomonidan Tariflarga va ushbu Shartnomaga kiritilgan o'zgartirishlar/qo'shimchalar yuzasidan 10 kun muddatda Mijozdan e'tirozlar kelib tushmagan taqdirda, ushbu o'zgartirishlar/qo'shimchalar Mijoz tomonidan qabul qilingan, deb hisoblanadi. Agar Mijoz Tariflarga va ushbu Shartnomaga kiritilgan o'zgartirishlar yoki qo'shimchalarga rozi bo'lmasa, Mijoz bunday o'zgartirishlar/qo'shimchalar kuchga kirgunga qadar Shartnomani ushbu Shartnomada nazarda tutilgan tartibda bekor qilishga haqli.

3.10. MSKHga xizmati ko'rsatish debetlash sxemasi bo'yicha amalga oshiriladi.

3.11. Mazkur Shartnoma bo'yicha barcha hisob-kitoblar O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasida amalga oshiriladi.

3.12. Mijoz Shartnomaning barcha qoidalari va Tariflari, Kartadan foydalanish tartibi bilan tanishib chiqqanligini va rozi ekanligini tasdiqlaydi. Mijoz Qo'shimcha Karta Saqlovchisini undan foydalanish tartibi, operatsiyalarni amalga oshirish tartibi va Tariflar bilan tanishtirish majburiyatini oladi.

3.13. Qo'shimcha kartaning amal qilish muddati quyidagi hollarda tugaydi:

- Qo'shimcha kartaning amal qilish muddati tugagandan so'ng;

- MSKH yopilgan taqdirda.

3.14. Qo'shimcha kartada bo'yicha barcha operatsiyalarni hisobga olish va Bank bilan o'zaro hisob-kitoblar MSKH orqali amalga oshiriladi.

3.15. Shartnoma doirasida Qo'shimcha karta bo'yicha amalga oshirilgan barcha operatsiyalar Mijoz nomidan amalga oshirilgan, deb hisoblanadi. Qo'shimcha Karta Saqlovchisi tomonidan amalga oshirilgan operatsiya uchun Mijoz javobgar bo'ladi.

## 4. BANKNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

### 4.1. Bank quyidagiladra majbur:

4.1.1. Mijoz tomonidan Bankka Kartani chiqarish uchun Ariza/Buyurtma topshirilgandan keyin 3 (uch) ish kuni ichida Mijozga MSKH ochish, Saqlovchi nomiga Karta chiqarish, uni belgilangan tartibda faollashtirish va Mijozga/Saqlovchiga topshirish;

4.1.2. Kartani berishda Mijozni kartadan foydalanish tartibi va Bank Tariflari bilan tanishtirish;

4.1.3. amaldagi qonunchilikka, bank qoidalariga, To'lov tizimining qoidalariga, ushbu Shartnomaga va Tariflarga muvofiq Kartadan foydalangan holda operatsiyalar bo'yicha hisob-kitoblarni o'z vaqtida amalga oshirish;

4.1.4. Mijoz/Karta Saqlovchisi Bankka tegishli ravishda to'ldirilgan o'tkazma uchun ariza topshirgan hollarda va o'tkazmani amalga oshirish va Bank vositachilik haqini to'lash uchun MSKH bo'yicha pul mablag'lari qoldig'i yetarli bo'lgan taqdirda, MSKHdan pul mablag'larini o'tkazish bo'yicha uning topshiriqlarini bajarish;

4.1.5. MSKHdagi mablag'lar qoldig'ini kamaytiradigan, ya'ni Karta Saqlovchisi tomonidan amalga oshirilgan barcha operatsiyalar summasiga, shuningdek Saqlovchi ushbu operatsiyalarni amalga oshirganligi uchun Bankka vositachilik haqi summasiga Mijozning MSKHni debetlash;

4.1.6. MSKHdagi mablag'lar qoldig'ini oshiradigan barcha operatsiyalar summasiga Mijozning MSKHni kreditlash;

4.1.7. Mijozning so'roviga binoan MSKH bo'yicha pul mablag'lari harakati to'g'risida ko'chirma taqdim etish va Mijozning da'volari bo'yicha tekshiruvlar o'tkazish;

4.1.8. Mazkur Shartnomaning 3.8-bandida nazarda tutilgan tartibda Mijozga Tariflar va ushbu Shartnomaning shartlari o'zgartirilganligi to'g'risida xabar berish;

4.1.9. Karta Saqlovchisidan Karta yo'qolganligi, o'g'irlanganligi yoki noqonuniy foydalanilganligi to'g'risida ariza olinganda – Kartani darhol blokirovka qilish;

4.1.10. Mijoz tomonidan Bankka yo'qolgan yoki o'g'irlangan Kartani qayta chiqarish to'g'risida yozma ariza bergan kundan boshlab 10 (o'n) bank kuni ichida Kartani qayta chiqarishni amalga oshirish;

4.1.11. Mijozga Kartadan foydalanish va hisob-kitoblar texnologiyasi bo'yicha maslahatlar berish;

4.1.12. ushbu Shartnoma bekor qilingan taqdirda, Tomonlar o'rtasidagi moliyaviy majburiyatlar hal qilinganidan so'ng, Mijozga MSKHga joylashtirilgan pul mablag'lari qoldig'ini qaytarish va keyin MSKHni yopish.

### 4.2. Bank quyidagi huquqlarga ega:

4.2.1. Mijoz tomonidan ko'rsatilgan va Bankka taqdim etilgan ma'lumotlarning to'g'riligi va to'liqligini tekshirish;

4.2.2. quyidagilarni Mijozning MSKHdan akseptsiz tartibda hisobdan chiqarish:

1) Kartadan foydalangan holda amalga oshirilgan operatsiyalar miqdoriga teng pul mablag'larini;

2) MSKHga noto'g'ri kiritilgan pul mablag'larini;

3) Tariflarga muvofiq Bankning vositachilik haqi summalarini;

4) bank kartalariga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq Bank tomonidan ko'rilgan, hujjat bilan tasdiqlangan xarajatlarni;

4.2.3. Bank tomonidan chiqarilganidan keyin 3 (uch) oy ichida Mijoz/Karta Saqlovchisi tomonidan talab qilinmagan Kartani yo'q qilish;

4.2.4. har qanday vaqtda, shu jumladan, lekin cheklanmagan holda:

a) Karta Saqlovchisi ushbu Shartnoma shartlarini, Komplayens bo'yicha qo'shimcha shartlarga muvofiq bergan tasdig'ini (ushbu Shartnomaga 1-ilova), to'lov tizimi Qoidalarini, bank ichidagi qoidalarini, amaldagi qonunchilikni buzganda;

b) Saqlovchi tomonidan Bankning obro'siga putur yetkazadigan yoki boshqa shaxslarga yoki Bankning o'ziga zarar yetkazadigan qonunga xilof operatsiyalar yoki harakatlar amalga

oshirilganda;

v) Mijoz tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarning noto'g'riligi aniqlanganda;

g) Bankning ixtiyoriga ko'ra boshqa hollarda, Bank Kartani to'xtatib turishi yoki bekor qilishi va buning uchun barcha zarur choralarni ko'rish huquqiga ega;

4.2.5. normativ hujjatlarda belgilangan hollarda Karta Saqlovchisi tomonidan MSKH bo'yicha o'tkaziladigan operatsiyalarning amaldagi qonunchilikka muvofiqligini nazorat qilinishini amalga oshirish. Buning uchun Bank Mijozdan Karta Saqlovchisini identifikatsiyalash va Karta Saqlovchisi to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash va ulardan nusxalarini olish uchun zarur bo'lgan Arizalardagi ma'lumotlarni tasdiqlovchi zarur hujjatlarni talab qilishga haqlidir. Ushbu hujjatlar taqdim qilinmagan taqdirda, Bank MSKH bo'yicha xarajatlar operatsiyasini rad etishga haqlidir;

4.2.6. jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish sohasidagi qonunchiligida nazarda tutilgan hollarda MSKH operatsiyalarini to'xtatib turish yoki ularni amalga oshirishni rad etish;

4.2.7. o'z ixtiyoriga ko'ra, Kartadan foydalanish bilan bog'liq operatsiyalar, xizmatlar va funktsiyalar to'plamini o'zgartirish, Mijozni mazkur Shartnomaning 3.8-bandida belgilangan tartibda o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risida oldindan xabardor qilgan holda, Tariflarga va ushbu Shartnomaga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish;

4.2.8. Mijozdan Bankka barcha qarzdorlik summalarini va ushbu Shartnomani buzish bilan bog'liq barcha xarajatlarni to'lashni talab qilish.

4.2.9. MSKHda salbiy balans aniqlangan taqdirda, shu jumladan texnik nosozliklar yoki protsessing markazlari tomonidan kliring bo'yicha o'zaro hisob-kitoblar o'z vaqtida amalga oshirilmaganligi sababli, pul mablag'larini aktseptsiz tartibda (Mijozning qo'shimcha roziligini olmasdan) MSKHdan va Mijozning boshqa Kartalarining hisobvaraqlaridan, shu jumladan boshqa banklarda ochilgan hisobvaraqlardan hisobdan chiqarish.

## **5. MIJOZNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI**

### **5.1. Mijoz quyidagilarga majbur:**

5.1.1. qonunchilikka, unga muvofiq belgilangan bank ichki qoidalariga, To'lov tizimining qoidalariga, ushbu Shartnomaning talablariga va Komplayens bo'yicha qo'shimcha shartlarga muvofiq u tomonidan berilgan tasdiqlarga rioya qilish (ushbu Shartnomaga 1-ilova);

5.1.2. MSKHni ochish va Kartani chiqarish uchun Bankka quyidagi hujjatlarni taqdim eting:

- Bank tomonidan belgilangan shaklda Kartani chiqarish uchun ariza;
- shaxsni tasdiqlovchi hujjatning asl nusxasi;
- Qo'shimcha Karta Saqlovchisining shaxsini tasdiqlovchi pasport yoki boshqa hujjatning asl nusxasi.

Mijoz, Shartnoma tuzish munosabati bilan Bankka taqdim etgan barcha ma'lumotlarning to'g'ri, to'liq va aniq bo'lishiga kafolat beradi;

5.1.3. Familiyasi, ismi, otasining ismi, yashash joyi, pasport ma'lumotlari/shaxsni tasdiqlovchi boshqa hujjat ma'lumotlari, aloqa telefoni, shuningdek ushbu Shartnomani tuzishda uning tomonidan taqdim qilingan boshqa ma'lumotlar o'zgarganligi to'g'risida, bunday o'zgarishlar yuz bergan paytdan boshlab o'n ish kuni ichida Bankka axborot bersin. Pasport ma'lumotlari/shaxsni tasdiqlovchi boshqa hujjatning ma'lumotlari o'zgarganda, Bankka shaxsni tasdiqlovchi yangi hujjatni taqdim etish (familiyasi, ismi yoki otasining ismi o'zgartirilganda, ushbu ma'lumotlarning o'zgarishini tasdiqlovchi hujjatni qo'shimcha ravishda taqdim etish). Ushbu bandeda ko'rsatilgan ma'lumotlarni taqdim etmaslik yoki o'z vaqtida taqdim etmaslik natijasida yuzaga keladigan barcha xatarlar Mijozga yuklatilgan;

5.1.4. olingan Kartaning saqlanishini ta'minlash, Kartaning buzilishi, yo'qolishi yoki noto'g'ri ishlatilishining oldini olish uchun barcha choralarni ko'rish. Kartaning amal qilishi to'xtatilgandan yoki ushbu Shartnoma to'xtatilgandan, bekor qilingandan so'ng, Kartani Bankka topshiring;

5.1.5. MSKHda mablag'lar qoldig'i doirasida xarajatlar operatsiyalarini amalga oshirish, ortiqcha qarzdorliklarning paydo bo'lishini nazorat qilish va uning paydo bo'lishiga yo'l qo'ymaslik. MSKH bo'yicha salbiy qoldiq shakllanishi tufayli Bank oldida qarzdorlik yuzaga kelgan taqdirda, Bankning birinchi talabiga binoan qarzdorlikni so'ndirish;

5.1.6. MSKHga noto'g'ri kiritilgan, Mijozga tegishli bo'lmagan pul mablag'lari to'g'risida, ushbu fakt aniqlangan kundan boshlab 10 (o'n) kalendar kun ichida Bankka yozma ravishda xabar berish va bunday hollarda, Bank tomonidan noto'g'ri kiritilgan pul mablag'larini aktseptsiz hisobdan chiqarish uchun MSKHda yetarli pul mablag'larining mavjudligini ta'minlash;

5.1.7. MSKHdan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun foydalanmaslik;

5.1.8. Karta yordamida to'langan xaridni savdo nuqtasiga qaytarilgan taqdirda, savdo nuqtasidan xarid narxini naqd pul mablag'lari bilan qaytarishni talab qilmaslik. Mazkur qoplab berish faqat MSKHga naqd pulsiz amalga oshirilishi mumkin;

5.1.9. amaldagi Tariflarga muvofiq Bankka vositachilik haqini to'lash;

5.1.10. Bank tomonidan Kartalardan qonunga xilof ravishda foydalanishning oldini olish bo'yicha Bank tomonidan haqiqatda ko'rilgan xarajatlar miqdorida hujjat bilan tasdiqlangan xarajatlarni, shuningdek Mijoz tomonidan mazkur Shartnomani buzish bilan bog'liq Bank yo'qotishlarini qoplash;

5.1.11. Bankning birinchi talabiga binoan Kartani Bankka taqdim etish;

5.1.12. Karta yo'qolgan, o'g'irlangan va (yoki) qonunga xilof ravishda foydalanilgan taqdirda, Hisobvaraqdagi operatsiyalarni to'xtatib turish (Kartani blokirovka qilish) uchun bu haqda Bankka yozma ravishda xabar berish. Qo'shimcha karta yoki Qo'shimcha karta yo'qolganligi to'g'risida yozma xabarnoma Qo'shimcha Karta Saqlovchisidan ham qabul qilinishi mumkin. Ilgari yo'qolgan deb e'lon qilingan Karta topilgan taqdirda, darhol Bankka xabar berish va Kartani topshirish;

5.1.13. ushbu Shartnoma bekor qilingan taqdirda, Bankdagi hisobvaraqni yopish, tegishli ariza berish orqali pul mablag'lari qoldig'ini (agar MSKHda qoldiq mavjud bo'lsa) olish;

5.1.14. Kartaning amal qilish muddati tugashidan 10 (o'n) kalendar kun oldin Kartani qayta chiqarish uchun Ariza bilan Bankka murojaat qilish;

5.1.15. Bankka uning talabiga binoan kerakli hujjatlarni darhol taqdim etish;

5.1.16. Qo'shimcha Karta Saqlovchisini amaldagi qonunchilik, ushbu Shartnoma talablari va Tariflar bilan tanishtirish; kartadan foydalanish tartibi bilan

5.1.17. Bankka nizoli operatsiya bo'yicha da'vo taqdim etilganda, nizoli operatsiya uchun terminal slipini taqdim etish;

5.1.18. mobil ilovalarga kirishda va boshqa hollarda SMS-ogohlantirishlar orqali olingan karta rekvizitlari, SHIR-kod, bir martalik tekshirish kodlarini uchinchi shaxslarga bermaslik;

5.1.19. Internet tarmog'idagi gumonli havolalarga o'tmaslik.

## **5.2. Mijoz quyidagi huquqlarga ega:**

5.2.1. MSKHda mavjud bo'lgan pul mablag'lari doirasida Kartadan foydalangan holda operatsiyalarni amalga oshirish;

5.2.2. Shaxsini tasdiqlovchi hujjat bilan Bankka shaxsan murojaat qilganda, shuningdek Autentifikatsiyadan o'tgan taqdirda telefon orqali Karta hisobvarag'ining holati to'g'risidagi ma'lumotni, MSKH bo'yicha ko'chirmani yozma ravishda va og'zaki ravishda olish. Shuningdek, "Alliance" Mobil ilovasining tegishli menyusidan foydalanib, MSKHning ishlashi to'g'risida axborot olish.

5.2.3. MSKH bo'yicha ma'lumot (ko'chirma) olish. Mijozga zarur bo'lgan har qanday davr uchun ko'chirmalarning dublikatlarini, shuningdek Bank tomonidan MSKHdan pul mablag'larini hisobdan chiqarish qonuniyligini tasdiqlovchi boshqa hujjatlarni so'rash. Bunday holda, Mijoz Bankka shaxsan murojaat qilishi va shaxsini tasdiqlovchi hujjatning asl nusxasini taqdim etishi kerak;

5.2.4. Qo'shimcha kartani chiqarish uchun yozma ariza bilan Bankka murojaat qilish;

5.2.5. Karta yo'qolgan (o'g'irlangan) yoki uning amal qilish muddati tugagan taqdirda, yangi Kartani chiqarish to'g'risida Bankka tegishli Ariza berish orqali Bankka murojaat qilish;

5.2.6. Bank tomonidan belgilangan shakl bo'yicha to'ldirilgan o'tkazma uchun Arizada Mijoz tomonidan ko'rsatilgan rekvizitlar bo'yicha MSKHdan pul mablag'larini o'tkazish bo'yicha Bankka topshiriqlar berish;

5.2.7. Karta yo'qolgan, o'g'irlangan yoki g'ayri qonuniy ravishda foydalanilgan taqdirda, darhol Kartani blokirovka qilish to'g'risida yozma ariza bilan Bankka murojaat qilish;

5.2.8. o'z xohishiga ko'ra, Bank uskunalari (terminallar yoki bankomatlar)dan foydalangan holda SHIR-kodlarni o'zgartirish;

5.2.9. istalgan vaqtda Bankka tegishli Ariza berish orqali MSKHni yopish.

## **6. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI**

6.1. Tomonlar o'z majburiyatlarini bajarmaganliklari yoki lozim darajada bajarmaganliklari uchun O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga va ushbu Shartnoma shartlariga muvofiq javobgar bo'ladilar.

6.2. Mijoz o'zi yoki uning ishonchli vakili, shuningdek Qo'shimcha Karta Saqlovchilari tomonidan amalga oshiriladigan barcha operatsiyalar uchun javobgar bo'ladi. Karta Saqlovchisi tomonidan ushbu Shartnoma shartlarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi natijasida Bankka yetkazilgan zarar Mijoz tomonidan so'zsiz qoplanishi kerak.

6.3. Mijoz yo'qolgan Kartani blokirovka qilish to'g'risida Bankni o'z vaqtida xabardor qilmaslik oqibatlarini uchun javobgar bo'ladi

6.4. Bank MSKHda Mijoz tomonidan joylashtirilgan mablag'larning saqlanishi uchun javobgar bo'ladi va ushbu Shartnomaga hamda O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq Mijozga qaytarilishini kafolatlaydi. Bank MSKH bo'yicha operatsiyalar to'g'risida bank sirlarini saqlash uchun javobgardir. MSKH va Kartadan foydalangan holda amalga oshirilgan operatsiyalar to'g'risidagi ma'lumotlar Bank tomonidan uchinchi shaxslarga faqat bunday oshkor qilish O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq Bankning majburiyati bo'lgan hollarda yoki Mijozning roziligi bilan boshqa hollarda oshkor etilishi mumkin.

6.5. MSKHga pul mablag'larini o'z vaqtida o'tkazmaganlik uchun Bank qonunchilik bilan belgilangan javobgarlikni olib boradi.

6.6. Xizmatlar uchinchi shaxslar tomonidan taqdim etilgan taqdirda va ularning taqdim etilganligi Karta Saqlovchisida mavjud bo'lganda, Bank Mijoz oldida xizmatlarni taqdim etish yoki ularning sifati uchun javobgar bo'lmaydi. Bank tomonidan ushbu Shartnoma qoidalarini bajarmaslikka olib keluvchi texnik nosozliklar (elektr ta'minoti va aloqa tarmoqlarining uzilishi/shikastlanishi, uskunaning ishlamay qolishi, dasturiy ta'minotdagi, elektr ta'minotidagi, ma'lumotlar uzatish tizimlaridagi va Bank ma'lumotlar bazasidagi uzilishlar, protsessing tashkiloti bilan aloqaning uzilishi va boshqalar) yuzaga kelgan taqdirda, Bank mulkiy javobgarlikdan ozod qilinadi.

6.7. Mijoz yo'qolgan Kartani blokirovka qilish to'g'risida Bankni o'z vaqtida xabardor qilmaslik oqibatlarini uchun Bank javobgar emas.

6.8. Tomonlar ushbu Shartnoma bo'yicha qabul qilingan majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun javobgarlikdan ozod qilinadilar, agar bunday bajarmaslik yengib bo'lmay kuch holatlari natijasida yuzaga kelgan bo'lsa. Bunday holatlarga shu jumladan quyidagilar kiradi: harbiy harakatlar, ommaviy tartibsizliklar, epidemiyalar, yong'inlar, tabiiy ofatlar, davlat organlari, To'lov tizimlarining ushbu Shartnoma bo'yicha majburiyatlarning bajarilishiga bevosita ta'sir ko'rsatgan hujjatlari va (yoki) harakatlari. Tomonlar zudlik bilan yengib bo'lmay kuch holatlari boshlanishi va tugashi to'g'risida yozma ravishda xabar berishlari shart. Yengib bo'lmay kuch holatlari vakolatli organlar tomonidan belgilangan tartibda tasdiqlangan taqdirda, fors-major deb hisoblanadi

## **7. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI, UNI BEKOR QILISH TARTIBI**

7.1. Shartnoma Mijoz ushbu ofertani aktseptlagan paytdan boshlab kuchga kiradi va noma'lum vaqt davomida amal qiladi.

7.2. Shartnoma Mijozning ushbu Shartnomani bekor qilish va hisobvaraqni yopish to'g'risidagi yozma arizasi asosida bekor qilinishi mumkin, agar:

- Клиент выполнил все обязательства перед Банком по настоящему Договору;
- Клиент не имеет задолженности перед Банком.
- Mijoz ushbu Shartnoma bo'yicha Bank oldidagi barcha majburiyatlarini bajargan bo'lsa;
- Mijozning Bank oldidagi qarzi mavjud bo'lmasa.

7.3. Ushbu Shartnoma quyidagi hollarda bekor qilinadi:

- Mijoz Bank tomonidan Tariflarga va ushbu Shartnomaga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalarni rad etgan taqdirda (ushbu Shartnomaning 3.8., 3.9.-bandlari);

- Mijoz tomonidan Shartnoma shartlari, Komplayens bo'yicha qo'shimcha shartlarga muvofiq u tomonidan berilgan tasdiqlar (ushbu Shartnomaga 1-ilova), O'ZR qonunchiligi

talablari buzilganda;

- talab qilinmagan karta Bank tomonidan yo'q qilingan taqdirda;

- Kartalarning amal qilish muddati tugagandan so'ng va Mijoz yoki Bank tomonidan keyinchalik qayta chiqarishdan bosh toprgan taqdirda yoki ushbu Shartnomaga muvofiq tomonlar o'rtasidagi barcha moliyaviy majburiyatlarni hal qilish sharti bilan Kartaning amal qilishi muddatidan oldin bekor qilingan taqdirda.

7.4. Ushbu Shartnomani bekor qilish Mijozning hisobvarag`ini yopish uchun asos hisoblanadi.

## **8. NIZOLARNI HAL QILISH**

8.1. Ushbu Shartnomani ijro etish paytida yuzaga keladigan barcha nizolar va kelishmovchiliklar, imkon qadar, Tomonlar o'rtasida muzokaralar yo'li bilan hal qilinadi.

8.2. Kelishuvga erishilmagan nizolar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida nazarda tutilgan tartibda fuqarolik ishlari bo'yicha sudda hal qilinishi lozim.

## **9.BANKNING YURIDIK MANZILI VA REKVIZITLARI**

«ASIA ALLIANCE BANK» ATB

**Manzil:** Toshkent sh., Yashnobod tumani,  
Maxtumkuli ko`chasi, 2 A-uy

Bank rekvizitlari:

h/v 2980200000001095001

MFO: 01095 STIR:207018693

IFUT: 64190 KTUT:22921172



## **KOMPLAYENS BO`YICHA QO`SHIMCHA SHARTLAR**

### **1. Maqsad va ta`riflar.**

1.1. Ushbu Komplayens bo`yicha qo`shimcha shartlarning maqsadi (**bundan buyon matnda “Qo`shimcha shartlar” deb yuritiladi**) Shartnoma taraflari uchun “Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg`in qurollarini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish” (bundan buyon matnda **“JDL/TM/OQTMQK”** deb yuritiladi), “Poraxo'rlikka va korrupsiyaga qarshi kurashish” (bundan buyon matnda **“PKQK”** deb yuritiladi), “Sanktsiyalar va eksport nazorati choralari” (bundan buyon matnda **"Sanktsiyalar"** deb yuritiladi) sohalarida yuzaga keladigan komplayens tavakkalchiliklarni minimallashtirish hisoblanadi.

**Jinoiy daromadlarni lellashtirish** - jinoyat sodir etish natijasida olingan pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulkka egalik qilish, ulardan foydalanish yoki tasarruf etishning qonuniy shaklini berish.

**Terrorizmni moliyalashtirish** - bu terrorchilarga va terrorchilik faoliyatiga mablag`lar taqdim etish yoki moliyaviy qo'llab-quvvatlash.

**Korrupsiya** - shaxs (bank xodimlari)ning o'z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlari yoki o`zqa shaxslarning manfaatlarini ko`zlab moddiy yoki nomoddiy naf olishi uchun qonunga xilof ravishda foydalanishi, shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etishi.

**Poraxo'rlik** - bu oluvchiga ta'sir o'tkazish va undan qonunga xilof xatti-harakatlarga erishish maqsadida qimmatliklarni berish, va'da qilish yoki ruxsat berish, olish yoki o'tkazish yoki oluvchining nafni qabul qilishi qonunga xilof bo'lgan vaziyat.

**Sanktsiyalar** deganda, tegishli yurisdiksiya davlat organlari tomonidan joriy qilingan, yozib qo`yilgan yoki amalga kiritilgan iqtisodiy yoki moliyaviy cheklovlarni yoki savdo embargosini anglatadi.

**Sanktsiyalar ro'yxati** - bu sanktsiyalar ostida bo'lgan jismoniy va/yoki yuridik shaxslar, hududlar, mamlakatlar, tovarlar va xizmatlarning reestri.

**Eksport nazorati** deganda tovarlar, texnologiyalar, texnik ma'lumotlar, dasturiy ta'minot yoki xizmatlarni import qilish, eksport qilish, reeksport qilish, transferi, chiqarish, jo'natish, uzatish yoki har qanday taqdim etish yoki qabul qilishni tartibga

solish bilan bog'liq qonunlar yoki huquqiy hujjatlar, shuningdek, hukumat organlari tomonidan qo'llaniladigan va amalga kiritilgan shunga o'xshash xususiyatdagi har qanday qonunlar yoki huquqiy hujjatlar tushuniladi.

**Sanktsiya tavakkalchiliklari** - bu bank tranzaksiya xizmatlari sub'ekti, uning ta'sischisi, benefitsiari yoki nazorat qiluvchi shaxsga nisbatan amerika, yevropa sanksiyalari yoki davlatlar va xalqaro yurisdiksiyalar tomonidan qabul qilingan boshqa sanksiyalarning joriy etilishi ehtimoli.

**Bloklangan shaxs** deganda, (a) mol-mulki yoki mulkka bo'lgan huquqi har qanday sanksiyalar bilan bloklangan, (b) sanksiyalar bo'yicha aktivlarni muzlatish ob'ekti sifatida belgilangan, (v) tegishli sanksiyalar yoki eksport nazorati choralari bo'yicha bitimlar taqiqlangan yoki (g) har qanday bunday shaxsga tegishli yoki nazorat qilinadigan har qanday shaxsni anglatadi.

**Moliyaviy firibgarlik** – qonunga xilof ravishda boyish maqsadida aldash, ishonchni suiiste'mol qilish va boshqa manipulyatsiyalar orqali pul muomalasi sohasidagi noqonuniy xatti-harakatlarni amalga oshirish.

**Mijoz** deganda, unga ushbu komplayens qoidalari qo'llaniladigan, “ASIA ALLIANCE BANK” ATB (bundan buyon matnda “Bank” deb yuritiladi) bilan tuzilgan Shartnomada belgilangan tomon, yuridik yoki xususiy shaxsni anglatadi.

**Affillangan shaxs** - mijozning faoliyatiga ta'sir ko'rsatishga qodir bo'lgan jismoniy yoki yuridik shaxs.

**Vakillik-bank** – “ASIA ALLIANCE BANK” ATB bilan ishbilarmonlik munosabatlarida bo'lgan va vakillik shartnomasi asosida Bankning topshirig'iga binoan to'lovlar, hisob-kitoblar va boshqa operatsiyalarni bajaruvchi bank.

## **2. Huquqiy asoslar.**

- 2.1. Ushbu Qo`shimcha shartlar doirasida Bank O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga rioya qiladi va xalqaro standartlarga amal qiladi.
- 2.2. Mahalliy talablarga quyidagi hujjatlar kiradi:
  - O'zbekiston Respublikasining Jinoyat Kodeksi.
  - “Korruptsiyaga qarshi kurashish to'g'risida”gi Qonun.
  - “Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risida”gi qonun.
  - 2017-yil 23-maydagi 2886-sonli “Tijorat banklarida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha ichki nazorat qoidalari”.
  - JDL/TM/OQTMQK, PKQK va Sanksiyalar sohaslarida Bankning tartib-taomillari.

### 2.3. Xalqaro standartlarga quyidagi hujjatlar kiradi:

- Jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish bo'yicha moliyaviy chora-tadbirlarni ishlab chiqish guruhining tavsiyalari<sup>1</sup> (ingl. Financial Action Task Force on Money Laundering — FATF).
- ISO 37001:2016 - korrupsiyaga qarshi samarali tizimni tashkil etishda xalqaro qurilish modelini o'z ichiga olgan xalqaro standart<sup>2</sup>.
- BMTning Sanktsiyalar ro'yxati, OFAC (AQSH Moliya vazirligining xorijiy aktivlarni nazorat qilish boshqarmasi), EI (Evropa Ittifoqi, Evropa qo'mitasi), UK (Birlashgan Qirollik, Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya) va boshqa xorijiy davlatlar<sup>3</sup> va xalqaro tashkilotlarning vakolatli organlari, shuningdek, boshqa rasmiy ravishda e'lon qilingan sektoral sanktsiyalar va/yoki eksport nazorati ro'yxatlari.
- JDL/TM/OQTMQK, PKQK, Sanktsiyalar sohasidagi Bank vakillik banklarining talablari.

### 3. Mijozning tasdig'i.

3.1. Mijoz Bank bilan shartnomaviy munosabatlarga kirishda Bankni ushbu Qo'shimcha shartlarning 2.2-bandida ko'rsatilgan Qonunchilik hujjatlariga, shuningdek 2.3-bandida ko'rsatilgan xalqaro standartlarga rioya qilishini tasdiqlaydi, xususan, Mijoz:

- Bank bilan shartnomaviy munosabatlar doirasida jinoiy daromadlarni legallashtirishni va terrorizmni moliyalashtirishni amalga oshirmaydi;
- Bank bilan shartnomaviy munosabatlar doirasida moliyaviy firibgarlikda ishtirok etmaydi;
- Bank xodimiga pora taklif qilmaydi, pora bermaydi, Bank xodimidan pora olmaydi;
- Bank nomidan uchinchi shaxslarga pora taklif qilmaydi, bermaydi;
- Bank bilan shartnomaviy munosabatlar doirasida sanktsiyalar ro'yxatida bo'lgan tomon bilan kelishuvlar tuzmaydi, bank operatsiyalarini amalga oshirmaydi;
- Bank bilan shartnomaviy munosabatlar doirasida affillangan shaxsi sanktsiyalar ro'yxatida bo'lgan tomon bilan kelishuvlar tuzmaydi, bank operatsiyalarini amalga oshirmaydi;
- eksport nazorati ostida bo'lgan tovarlar va xizmatlar bo'yicha uchinchi shaxslar bilan kelishuvlar tuzmaydi, bank operatsiyalarini amalga oshirmaydi;
- sanktsiyalar ro'yxatida bo'lgan banklar (*shu jumladan, ularning affillangan shaxslari*) orqali bank operatsiyalarini amalga oshirmaydi;

---

<sup>1</sup> <https://www.fatf-gafi.org/>

<sup>2</sup> <https://www.iso.org/ru/iso-37001-anti-bribery-management.html>

<sup>3</sup> G7 mamlakatlari Frantsiya, AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya, Yaponiya, Italiya va Kanada hisoblanadi.

- shartnoma munosabatlari doirasida amalga oshirilayotgan tranzaksiyalar, kontraktlar, operatsiyalar qatnashchilari, tovarlar va xizmatlar hamda mablag'larning harakati to'g'risidagi hujjatlar va ma'lumotlarning to'liq va oshkora taqdim etilishini ta'minlaydi;
- O'zbekiston Respublikasi Qonunchiligiga va xalqaro standartlarga zid bo'lgan har qanday qonunga xilof operatsiyalarni amalga oshirish niyatida emas;
- Mijozning ushbu Qo'shimcha shartga rioya qilmasligi natijasida kelib chiqadigan zararlar, chiqimlar, yo'qotishlar, majburiyatlar, jarimalar, peniyalar yoki xarajatlarni (shu jumladan advokatlik xarajatlari va gonorarlar) qoplash uchun javobgarlikdan Bankni ozod qiladi.

#### **4. Bankning huquqlari.**

4.1 Mijoz ushbu Qo'shimcha shartning 3-bandi talablarini buzgan taqdirda, Bank Mijoz bilan shartnomaviy munosabatlarni bir tomonlama bekor qilishga haqli.

4.2 Vakillik banklar tomonidan Bankka nisbatan sanksiyalar yoki boshqa cheklov choralarini qo'llash xavfi yuzaga kelsa, Bank hisobvaraqlar ochishni va bank operatsiyalarini amalga oshirishni rad etish huquqiga ega.